

«TENGE BANK» ATB MASOFAVIY BANK XIZMATI ORQALI ONLAYN MIKROQARZ TAQDIM QILISH TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mijozni verifikasiyalash – Mijozning olingan va Bankdagi mavjud shaxsiy ma'lumotlari aktualligini, to'g'riliqini va to'liqligini tekshirish.

Mikroqarz berilgan sana – Bank tomonidan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga/bank kartasiga, shu jumladan Qarz oluvchining virtual kartasiga/elektron hamyoniga pul mablag'lari o'tkazilgan sana.

Qarz oluvchiMijoz/ – tasdiqlangan daromadga ega va Mikroqarz mahsuloti shartlari bo'yicha barcha talablarga javob beradigan, shuningdek Bank bilan tuzilgan mazkur mikroqarz taqdim qilish to'g'risidagi Shartnomha va ommaviy oferta doirasida Mikroqarz olgan jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari/rezidentlari).

Mikroqarzning individual shartlari – MBX orqali Individual shartlarni va mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali MijozQarz oluvchi/ tomonidan Mikroqarz olishda aks ettiriladigan va tasdiqlangan Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasi doirasida Mijozga mikroqarz taqdim qilishning muayyan shartlari (summasi, muddati, foiz stavkasi va h.k.).

Kredit arizasi – Mijozga onlayn mikroqarz (bundan buyon matnda – "Mikroqarz") taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida MBX orqali Mijoz tomonidan (potensial Qarz oluvchi tomonidan) Bankka yuboriladigan va mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda so'ralayotgan mikroqarz to'g'risida umumiyl axborotni o'z ichiga olgan hujjat (MBX tizimida tuziladi).

Mikroqarz/onlayn Mikroqarz – MBX tizimidan foydalanish orqali Bank tomonidan muddatlilik, qaytarish, ta'minlanganlik va to'lanish shartlarida Qarz oluvchiga mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda pul mablag'larini o'tkazish orqali taqdim qilinadigan pul mablag'lari.

Elektron hamyon – MBX orqali Mijoz foydalanishi mumkin bo'lgan Bankda ochilgan hisobvaraq.

Mikroqarz bo'yicha ta'minot – mikroqarz summasining 125% dan kam bo'limgan summada kredit so'ndirilmasligi xavfini sug'urtalash polisi.

To'lov majburiyatları – Qarz oluvchining mazkur Shartnomha bo'yicha qarzini, uning bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni (garovni rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlar) mazkur Shartnomada belgilangan summada va muddatlarda so'ndirish majburiyatları.

Masofaviy Bank xizmatlari (MBX tizimi) – Bank xizmatlaridan Masofaviy foydalanish imkoniyatini taqdim qiladigan dasturiy-texnik vositalar, shu jumladan «Tenge24» mobil ilovasi.

2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Ommaviy oferta «Tenge Bank» ATB (bundan buyon matnda – "Bank") tomonidan MBX orqali mazkur Ommaviy oferta umumiyl shartlarida va Mikroqarzning individual shartlarida mikroqarz taqdim qilinishi to'g'risida shartnomani (bundan buyon matnda – "Shartnom") tuzish to'g'risida Bankning nomuayyan sonli Mijozlariga yo'llangan rasmiy taklifi hisoblanadi.

2.2. Mikroqarz taqdim qilinishi to'g'risida shartnomha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga, Universal shartnomaga muvofiq tuziladi hamda Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta nazarda tutilgan va Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta biron-bir chegirmalarsiz yoki cheklowlarsiz so'zsiz akseptlanishini anglatadigan harakatlar amalga oshirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

2.3. Mazkur Ommaviy oferta shartlariga asosan Mikroqarz olishni istagan Mijozlar javob berishi kerak bo’lgan muayyan talablar, mikroqarz summasining miqdori, muddatlari, boshqa to’lovlar, shuningdek boshqa shartlar Mijozlarga umumiy foydalanish joylarida (Internet tarmog’ida Bankning quyidagi manzil bo’yicha rasmiy saytida: www.tengebank.uz, MBX tizimi servislarida, Bankning Aloqamarkazi orqali, shuningdek ommaviy axborot vositalarida va h.k.) tegishli axborotni joylashtirish orqali ma’lum qilinadi.

2.4. Mikroqarzni taqdim qilish shartlariga va axborot uzatish shartlari uchun ofertani qabul qilishga rozilik bergen va Kredit arizasini yuborgan holatda, Mijoz mazkur Ommaviy ofertani onlayn rejimida MBX tizimi vositalaridan foydalanilgan holda yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa usullar yordamida akseptlaydi. Mazkur aksept Bank uchun Mijozning Kredit arizasini potensial Qarz oluvchi sifatida dastlabki ko’rib chiqish uchun asos hisoblanadi. Bank tomonidan Mijozning arizasi ma’qullangan holatda, Bank Mijozga Mikroqarzning individual shartlarini taqdim qiladi. Mijoz tomonidan Mikroqarzning individual shartlari qabul qilingan (akseptlangan) holatda, Mikroqarzni taqdim qilish to’g’risida shartnomaga mazkur Ommaviy ofertada va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilgan hisoblanadi.

Bunda, MijozQarz oluvchi/ tomonidan Shartnomaga Bank operasion kuni tugaganidan so’ng va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyati yo’qligi sababli, shuningdek Bankka bog’liq bo’lmagan boshqa sabablarga ko’ra akseptlangan holatda, Shartnomaga Bank operasion kunidan keyingi birinchi kunda va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyati bo’lgan holatda, shuningdek Bankka bog’liq bo’lmagan boshqa sabablar bartaraf qilinganidan so’ng tuzilgan hisoblanadi.

2.5. Mikroqarzning individual shartlari MijozQarz oluvchi/ tomonidan har bir Mikroqarz olinishidan oldin alohida belgilanadi va Tenge24 mobil ilovasiga uzatiladi. Qarz oluvchi SMSxabarnomani tasdiqlash yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul orqali Mikroqarzning individual shartlarini qabul qiladi va rozilik bildiradi. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlari akseptlangan va Mikroqarzning individual shartlari qabul qilingan holatda,

Mikroqarzni taqdim qilish to’g’risida shartnomaga (bundan buyon matnda – “Shartnomaga”) mazkur Ommaviy ofertada va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilgan hisoblanadi hamda Bank va MijozQarz oluvchi/ tomonidan o’z majburiyatlari to’liq bajarilgungacha amal qiladi.

2.6. Mijoz Bankning Mijozning kreditni to’lash qobiliyati va boshqa ma’lumotlarini baholash amalga oshiriladigan skoring modeli tijorat siri ekanligiga va maxfiy hisoblanishiga hamda Bank quyidagi holatlarda sabablari ko’rsatilmagan holda Mijozga Mikroqarz berilishini rad qilishga haqli ekanligiga rozilik bildiradi:

- Mijozni va uning tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlarni tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlaridan muvaffaqiyatli o’tilmagan holatda va/yoki;
- muammoli kreditlar/qarzlar, ular bo’yicha joriy to’lov muddati kechiktirilgan qarzdorlik
- mavjud bo’lgan holatda;
- Mikroqarzni olishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg’in quroli tarqalishini moliyalashtirishdan iborat ekanligiga shubha-gumonlar mavjud bo’lgan holatda;
- Kredit arizasi/ariza beruvchi shartlarining Bank kredit siyosati/xavf-xatarlar strategiyasi talablariga muvofiq emasligi bilan bog’liq boshqa holatlarda;
- amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Mijozni mazkur Ommaviy oferta va Tariflar (shu jumladan, Bank tomonidan vaqtiga vaqtiga bilan kiritiladigan o’zgartirishlar va/yoki qo’shimchalar) bilan tanishtirish maqsadida Bank qayd etilgan hujjatlarni Bank saytida e’lon qiladi. Bank qo’shimcha ravishda Mijozga axborot olish va u Bankdan olinganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa usullar yordamida Mijozni xabardor qilishi mumkin. Qayd etilgan axborot Bank saytida birinchi joylashtirilgan sana ushbu axborot e’lon qilingan sana hisoblanadi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Bank Mijozga Kredit arizasida Mijoz tomonidan ko'rsatilgan summada, biroq Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasidan ko'p bo'limgan miqdorda Mikroqarz beradi, Mijoz esa olingan Mikroqarz summasini Bankka qaytarish hamda mazkur Ommaviy oferta va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarga asosan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Ta'minotga talablar – Bankning xohishiga qarab, ta'minotsiz yoki ta'minot asosida kredit qaytarilmasligi xavfini sug'ortalash polisi.

3.3. So'ndirish tartibi – har bir Mikroqarz bo'yicha Mijozning MBXni ko'rsatish tizimlarida amalga oshirish mumkin bo'lgan jadval bo'yicha har oylik to'lovlar.

4. QARZ HISOBVARAG'INI OCHISH

4.1. Mazkur Ommaviy ofertaga asosan Bank Mijozga O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda qarz hisobvarag'ini (hisobvaraqlarini) ochadi.

4.2. Hisobvaraqlarini Bank tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi va Mijozga MBXda axborot joylashtirish orqali ma'lum qilinadi.

5. MIKROQARZNI BERISH VA SO'NDIRISH TARTIBI

5.1. Mikroqarz Mijozga mazkur Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda va tartibda talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga yoki bank kartasiga, shu jumladan Mijozning virtual kartasiga/elektron hamyoniga naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini o'tkazish orqali taqdim qilinadi.

5.2. Mikroqarz olish uchun Mijoz MBX tizimi interfeysida mazkur Ommaviy oferta bilan tanishib chiqishi va uni akseptlashi (qabul qilishi) hamda va Kredit arizasini berish orqali Mikroqarz taqdim qilish imkoniyati to'g'risida so'rovnomaga bilan murojaat qilishi kerak.

5.3. Kredit arizasi ko'rib chiqilganidan so'ng Bank Mijozga MBX tizimi interfeysida yoki Mikroqarzning individual shartlarini shakllantirish orqali Bank tomonidan tasdiqlangan mazkur Ommaviy oferta shartlarida moliyalash summasini ma'lum qiladi yoxud muvaffaqiyatsiz verifikasiyalash yoki Mijozning kreditni to'lash qobiliyati yetarlicha emasligi sababli Mikroqarzning taqdim qilish imkoniyati yo'qligi to'g'risida xabar beradi.

5.4. Mazkur Ommaviy ofertani va Mikroqarzning individual shartlarini akseptlash orqali Mijoz o'z roziliги bildiradi va Bankka Mikroqarzni ko'rib chiqish, berish va so'ndirish jarayonlari bilan bog'liq maqsadlarda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga asosan rasmiy manbalardan kerakli hajmda Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini talab qilish, olish, ishslash va boshqa shaxsga uzatish vakolatini beradi.

5.5. Bank tomonidan tasdiqlangan Mijozni moliyalash summasi Mijozning kreditni to'lash qobiliyatini baholash orqali Bankda mavjud Mijoz to'g'risidagi axborot asosida belgilanadi. Mijozning kreditni to'lash qobiliyatini baholash metodikasi Bankning tijorat siri bo'lib, maxfiy hisoblanadi.

5.6. Mijoz Bank tomonidan taklif qilingan ehtimoliy moliyalash summasidan yuqori bo'limgan summada, mazkur Ommaviy oferta shartlarida so'ndirish oy kunlari qayd etilgan holda Kredit arizasini berishga yoki Mikroqarz olishni rad qilishga haqli.

5.7. Mijozning Kredit arizasi Mikroqarz summasini, uni so'ndirish muddatini, foiz stavkasini va so'ndirish oy kunini o'z ichiga oladi hamda Mijoz tomonidan akseptlangan mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5.8. Kredit arizasini va Mikroqarzning individual shartlari akseptini taqdim qilish Mijozning Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan Mikroqarzni olishga roziligining tasdiqlanishi hisoblanadi, shundan so'ng Mikroqarzning individual shartlari va Ommaviy oferta Bank va Mijoz o'rtaida kelishilgan hisoblanadi.

5.9. Bankning Mikroqarzni taqdim qilish bo'yicha majburiyati Mikroqarz taqdim qilingan sanadan e'tiboran bajarilgan hisoblanadi.

5.10. Taqdim qilingan Mikroqarz summasi, muddati, foiz stavkasi, Mikroqarzn ni so'ndirish jadvali Mikroqarzning individual shartlarida belgilanadi.

5.11. To'lov sanasi bank ishlamaydigan kuniga to'g'ri kelgan holatda, navbatdagi eng yaqin bank ish kuni To'lov sanasi kuni hisoblanadi. Bunda, to'lov summasi o'zgaradi (dam olish/bayram kunlari uchun foizlar to'lov summasiga qo'shiladi va kelgusi to'lovdan istisno qiladi).

5.12. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning so'ndirilishi (qaytarilishi) Mijoz tomonidan Mikroqarzning individual shartlariga asosan Mikroqarz valyutasida amalga oshiriladi.

5.13. Mijoz onlayn olingan mikroqarzni va uning bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni MBX tizimida belgilangan onlayn Mikroqarz to'lovlarini jadvalida qayd etilgan muddatlarga asosan so'ndirish majburiyatini oladi.

5.14. Mijozning Mikroqarzni so'ndirish uchun tushadigan mablag'lari Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni va hisoblab yozilgan foizlar, neustoyka, komissiyalar va h.k. bo'yicha qarzlarni so'ndirishga yo'naltiriladi. Bank foydasiga tushgan, Mijoz majburiyatlari ijrosi uchun yetarli bo'lмаган to'lov ushbu to'lov sanasida Mijozning mazkur Ommaviy oferta bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlari to'lovi uchun quyidagi ketma-ketlikda yo'naltiriladi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlarini mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'lik bo'lган boshqa xarajatlari.

5.15. Shartnomaga bo'yicha qarzning qisman muddatdan oldin so'ndirilishi Mikroqarzning individual shartlari bo'yicha Qarz oluvchining to'lovlar miqdorini va davriyligini (muddatlarini) belgilash tartibi o'zgarishiga olib kelmaydi.

5.16. Shartnomaga bo'yicha qarz qisman muddatdan oldin so'ndirilgan holatda, asosiy qarzning qoldiq summasi qisman muddatdan oldin so'ndirilgan summa chegirib olingan holda kamaytiriladi, bunda Har oylik to'lov asosiy qarz bo'yicha qisman so'ndirilgan summaga kamaytiriladi, foizlar asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iga hisoblab yoziladi, Kredit taqdim qilingan muddat esa o'zgarmaydi.

5.17. Muddatli qarz (so'ndirish sanasi boshlanmagan qarz/Mikroqarzning muddatdan oldin so'ndirilishi) Qarz oluvchi ko'rsatmalariga asosan so'ndiriladi.

5.18. Asosiy qarzning so'ndirilishi mazkur Shartnomaga bo'yicha taqdim qilingan Mikroqarz hisobi yuritiladigan qarz hisobvarag'iga amalga oshiriladi, hisoblab yozilgan foizlar esa Mikroqarz bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar hisobvarag'iga amalga oshiriladi. Qayd etilgan hisobvaraqlarga mablag'lari tushgan kun asosiy qarz va uning bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni so'ndirish sanasi hisoblanadi.

5.19. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarining so'ndirilishi Bank tomonidan Mijoz arizasi, Bank farmoyishi ijrosi orqali va/yoki Bank tomonidan mustaqil ravishda Mijozning talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'idan mablag'larning memorial orderlar bilan akseptsiz chegirib olinishi orqali yoxud Bank tomonidan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan tegishli summa chegirib olinishi orqali amalga oshiriladi.

5.20. Mazkur Ommaviy oferta bo'yicha Mikroqarz, foizlar va boshqa to'lovlar to'lanishi Mijoz tomonidan Bank hamkorlari to'lov terminallaridan yoki bankning MBX tizimidan foydalanib O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridan pul mablag'larini o'tkazish orqali o'zining talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini/Mikroqarzni so'ndirish uchun maxsus/jamg'arma hisobvarag'ini/kartochka hisobvarag'ini (so'mdag'i kartochka hisobvarag'ini) to'ldirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mikroqarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun Mijoz yoki uning vakolatli shaxsi mobil ilovada yoki Bank hamkorlari to'lov terminallarida rekvizitlarni to'ldirishda tegishli maydonga Mikroqarzni rasmiylashtirishda beriladigan «ID kredit kodi»ni kiritishi kerak. Qarz oluvchi «ID kredit kodi»ni Tenge24 mobil ilovasi yoki MBX orqali bilib olishi mumkin.

5.21. MBX tizimida onlayn Mikroqarz bo'yicha qarzni jadvalga asosan yoki muddatidan oldin so'ndirish imkoniyati taqdim qilinadi. Mijoz tomonidan MBX tizimi interfeysida "Jadvalga asosan so'ndirish" opsiyasi tanlangan holatda, pul mablag'lari jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi va

jamg'arma hisobvarag'idagi mavjud summa doirasida, to'lov muddati kelishiga qarab, to'lanadigan summada onlayn Mikroqarzni so'ndirishga yo'naltiriladi. Bunda, jadvalga asosan so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - asosiy qarz uchun hisoblab yozilgan foizlar; - asosiy qarz summasi. "Muddatdan oldin so'ndirish" opsiyasi tanlangan holatda, pul mablag'lari, birinchi navbatda, to'lov muddati kelgan haqiqiy hisoblab yozilgan foizlarga yo'naltiriladi, to'lovning qolgan qismi esa onlayn Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiriladi. "Muddatdan oldin so'ndirish" opsiyasidan Mijozda onlayn Mikroqarz bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarz bo'limgan holatda foydalanish mumkin. MBX orqali onlayn Mikroqarzni so'ndirishda hisoblab yozilgan foizlar jadvalga asosan to'lov muddati kelgan sanada so'ndiriladi.

5.22. Mijoz Bank tomonidan onlayn Mikroqarz bo'yicha to'lovlar Mijoz tomonidan dastlabki ariza berishda qayd etilgan bank kartalaridan, Mijozning mobil hamyonidan va Mijozning Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlardan muqarrar ravishda chegirib olinishiga rozilik bildiradi.

5.23. Onlayn Mikroqarz bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarzning undirushi Bank tomonidan foizlar va asosiy qarz bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarz summasining mobil hamyondan, bank kartalaridan va Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlardan quyidagi tartibda muqarrar ravishda chegirib olish orqali amalga oshiriladi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovleri mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'lik bo'lган boshqa xarajatlari.

6. MIKROQARZDAN FOYDALANILGANLIK UCHUN HAQ

6.1. Bank foizlarni Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan yillik foiz stavkasi hisobkitobidan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iga hisoblab yozadi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkalari o'zgargan yoki kapital bozorida resurslar uchun to'lov oshgan/kamaygan holatda, Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun hisoblab yoziladigan foizlar miqdori Taraflar tomonidan o'zaro kelishuvga asosan qayta ko'rib chiqilishi mumkin, bu MBX orqali yoki yozma shaklda oferta (qo'shimcha bitim) aksepti bilan tasdiqlanadi.

6.3. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz qoldig'iga foizlar yiliga 365 kun va har bir oydagisi haqiqiy kunlar soni hisob-kitobida har kuni ish kuni oxirida hisoblab yoziladi. Foizlarni hisoblab yozish qarz hisobvarag'ida qarzdorlik yuzaga kelgan kunda amalga oshirilishi boshlanadi.

6.4. Mijoz Bankka Mikroqarzning individual shartlariga asosan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun hisoblab yozilgan foizlarni to'lov sanasida to'laydi.

6.5. Mikroqarzning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga asosan hisoblab chiqiladi. Mikroqarzning to'liq qiymati tarkibi to'g'risida batafsil ma'lumotlar Mikroqarzning individual shartlarida keltiriladi.

6.6. Shartnomalariga Mijoz tomonidan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi xavf-xatariga olib kelmaydigan (foiz stavkasi oshishi, shaxsiy ma'lumotlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritish va h.k.), shuningdek Bank Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning qisman muddatdan oldin so'ndirilishi tufayli so'ndirish jadvaliga har oylik to'lov summasini qayta hisoblash yuzasidan o'zgartirishlar kiritishga haqli bo'ladi o'zgartirishlar kiritilishi Shartnomalariga o'zgartirishlar kiritilishi uchun bir martalik komissiya undiruviziz amalga oshiriladi.

6.7. Shartnomalariga ta'minot yuzasidan Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi xavf-xatariga olib kelmaydigan (qo'shimcha ta'minot taqdim qilish, texnologiya, kadastr hujjatlari almashtirilganida, garov predmeti joylashgan manzil o'zganganida garov bo'yicha ma'lumotlar yuzasidan shaxsiy ma'lumotlarga doir o'zgartirishlar kiritish, sug'urta muddatini uzaytirish va h.k.) o'zgartirishlar kiritilishi Shartnomalariga ta'minot yuzasidan o'zgartirishlar kiritilishi uchun bir martalik komissiya undiruviziz amalga oshiriladi.

7. MIKROQARZNING QAYTARILISHINI TA'MINLASH

7.1. Mazkur Ommaviy oferta bo'yicha beriladigan Mikroqarz quyidagi turdag'i ta'minotlardan biri bilan ta'minlanishi mumkin:

7.1.1. Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash polisi. Bank Sug'urtalovchi bilan kreditlashning butun muddati uchun Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash shartnomasini tuzadi (bundan buyon matnda – "ta'minot"). Mikroqarz so'ndirilmasligi xavfxatarini sug'urtalash polisining muayyan shartlari tegishli sug'urtalash shartnomasida (yoki sug'urtalash bo'yicha bitimda) Bankni qoniqtiradigan ravishda oldindan belgilab olinadi. Ta'minot Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bank bilan aloqador shaxslar uchun – Mikroqarz summasining 130 foizidan kam bo'lмаган miqdorda qabul qilinadi.

Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash polisini rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni (sug'urta premiyasi), agar kredit mahsuloti shartlarida o'zgacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank o'ziga qabul qildi.

7.1.2. Mijoz/uchinchi shaxslarning alohida depozit hisobvarag'iga joylashtirilgan pul mablag'lari garovi. Ta'minot milliy valyutadagi pul mablag'lari garovga qo'yilgan holatda Mikroqarz summasining 100 foizini qoplaydigan miqdorda va chet el valyutasidagi pul mablag'lari garovga qo'yilgan holatda Mikroqarz limitining 110 foizidan kam bo'lмаган miqdorda qabul qilinadi. Ushbu talab Bank bilan aloqador shaxslar uchun ham joriy qilinadi.

7.1.3. Uchinchi shaxs kafilligi Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bank bilan aloqador shaxslar uchun – Mikroqarz summasining 130 foizidan kam bo'lмаган miqdorda qabul qilinadi.

7.1.4. O'zbekiston Respublikasi banklarida Mijozning hisobvaraqlariga va omonatlariga tushadigan va/yoki joylashtiriladigan, shu jumladan ijaraga beriladigan mulk daromadlaridan, omonatlar bo'yicha foizlardan, oylik ish haqidan va boshqa daromadlardan Mikroqarz summasining 125 foizidan kam bo'lмаган qismini qoplaydigan miqdorda tushadigan pul mablag'larini talab qilish huquqi bilan ta'minlanishi mumkin.

7.1.5. Transport vositalari garovi bilan ta'minlanishi mumkin. Ushbu garovning muayyan shartlari notarial rasmiylashtirilgan garov shartnomasida belgilanadi. Qarz oluvchi "Garov predmeti"ni Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash va Mikroqarz shartnomasining butun amal qilish davri uchun sug'urtani ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz bergan holatda Bank Naf oluvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va Garov predmetining notarial rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka Mikroqarz beriladigan sanagacha taqdim qilinishi kerak.

7.2. Agar Mijoz Mikroqarzning individual shartlariga muvofiq asosiy qarzni, foizlarni va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlarni belgilangan muddatda so'ndirish bo'yicha biron-bir to'lovnii amalga oshirish holatida bo'lмаган vaziyat va/yoki shartnomasi bo'yicha boshqa majburiyatlar buzilishi yuzaga kelsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur Ommaviy ofertaga asosan Bank undiruvni ta'minotga va/yoki u(lar)ning qismiga qaratish va/yoki Mijoz qarzlarini Sug'urtalovchidan undirish muqarrar va so'zsiz huquqini oladi va Mijoz Bankka ushbu huquqni taqdim qiladi.

8. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI ISHLASH

8.1. Mijoz Shartnomasi tuzish, shuningdek Bankka Kredit arizasini yuborish orqali Bankka Mijoz tomonidan taqdim qilingan qog'oz va/yoki elektron tashuvchilardagi shaxsiy ma'lumotlarni ishlashni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan, ishslash huquqini taqdim qilish) avtomatlashtirish vositalaridan foydalanilgan holda va/yoki foydalanilmagan holda amalga oshirish, Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini egasiz qilish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo'q qilish huquqini beradi (rozilagini bildiradi).

8.2. Mazkur Shartnama maqsadlari uchun Mijozning shaxsiy ma'lumotlari deyilganida Mijoz yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan har qanday ehtimoliy usulda Bankka bevosita yoki bilvosita muayyan yoki uning yordamida aniqlanadigan Mijozga tegishli axborot, shu jumladan quyidagi ma'lumotlarning taqdim qilinishi tushuniladi: familiyasi, ismi, otasining ismi; tug'ilgan kun, oy va yil; jinsi; aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar (telefon raqamlari, elektron pochta manzillari); shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar; turar joy va/yoki joylashgan manzil to'g'risida ma'lumotlar, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, farzandlari, bandligi va faoliyat sohasi to'g'risida ma'lumotlar, ish beruvchi to'g'risida ma'lumotlar, o'rtacha oylik daromadi va har oylik xarajatlari va h.k. to'g'risida ma'lumotlar.

8.3. Yuqorida qayd etilgan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlarda ishlash:

Bank tomonidan Mijoz bilan Shartnama tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, Bank tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lган xulosa masalasi bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilish, shu jumladan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini faqat avtomatlashtirilgan ravishda ishlash orqali; Mijoz tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar to'g'rilingini tekshirish; Shartnomani bajarish va bekor qilish; Shartnama bo'yicha qarzlarni talab qilib olish (so'ndirish, undirib olish); Mijozning to'lov qobiliyatini baholash; uning ish joyini, amalda turar joy manzilini, telefon raqamlarini va Mijozdan olingen boshqa ma'lumotlarni tekshirish; Mijozning Bank mahsulotlariga qiziqishini aniqlash; Mijozni marketing segmentlariga kiritish; Mijozga Bankning boshqa xizmatlari va mahsulotlarini taklif qilish va ko'rsatish (taqdim qilish) (shu jumladan, Bank tomonidan taqdim qilinadigan boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq boshqa shartnomalar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqish).

8.4. Mijoz Shartnama tuzish orqali Bankdan maxsus shartlarda bank mahsulotlari shaxsiy takliflarini olish maqsadida Bankka istalgan vaqtida kreditlar tarixi byurosidan uning kredit tarixi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib olishni topshiradi.

9. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Mijoz quyidagilarga haqli:

9.1. Mikroqarzni istalgan vaqtida, jarima sanksiyalari undiruvvisiz mazkur Shartnomada belgilangan muddatdan oldin so'ndirish.

9.2. Mazkur Shartnama tuzilganidan so'ng pul mablag'lari olingungacha davrda Mikroqarz olishni bepul asosda rad qilish.

9.3. Mikroqarz bo'yicha garovga qo'yilgan o'z depoziti (agar mavjud bo'lsa, omonati) mablag'larini, depozit (omonat) amal qilish muddatidan qat'i nazar, Mikroqarzni qaytarishga yo'naltirish. Bunda, agar Mijoz Mikroqarz bo'yicha garovga qo'yilgan o'z muddatli depoziti (omonati) mablag'larini shartnomada belgilangan depozit (omonat) muddati tugagungacha Mikroqarzni qaytarishga yo'naltirish istagini bildirsa, u bu haqda Bankni depozit (omonat) qaytarilishi mo'ljallangan sanagacha eng kamida bir oy oldin xabardor qilishi kerak.

9.4. Shartnama amal qilish davrida oyiga bir marta bir ish kuni mobaynida quyidagilar to'g'risida axborotni yozma shaklda bepul asosda olish:

- Mikroqarz bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi;
- asosiy summa bo'yicha qarz qoldig'i;
- navbatdagi to'lovlar miqdori, tarkibi va muddatlari (to'lovlar jadvali);
- to'lov muddati kechiktirilgan qarz miqdori va tarkibi;
- tushadigan pul mablag'larini Mikroqarz bo'yicha qarzni so'ndirishga yo'naltirish.

Mijoz bunday turdagи hujjatlar almashinuvি MBX tizimi vositalari orqali qog'oz tashuvchidagi hujjatga tenglashtiriladigan va bir xil yuridik kuchga ega elektron shaklda amalga oshirilishi shartini qabul qiladi.

9.5. Mikroqarz summasidan Shartnama tuzilgan kundan e'tiboran 14 (o'n to'rt) kun mobaynida foydalanish. Ushbu davr tugaganidan so'ng Mikroqarzning foydalanimagan qismi o'zlashtirilishi kerak.

9.6. Universal shartnama va Amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa huquqlar.

Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:

9.7. Qarzni so'ndirish va shartnomada nazarda tutilgan barcha to'lovlarni va Bank xizmatlari to'lovini Shartnomaga asosan, shu jumladan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha e'tirozlar taqdim qilingan holatda, bunday e'tirozlarni qondirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingan paytgacha to'liq hajmda amalga oshirish.

9.8. Bankka mazkur Shartnomada va Bankning amaldagi Tariflarida belgilangan komissiya va to'lovlarni to'lash.

9.9. Hisobvaraqa to'lov sanasidan kechikmay Mikroqarz bo'yicha to'lovlardan summasini ta'minlash. To'lov sanasida Hisobvaraqa Bank tomonidan Mikroqarz bo'yicha to'lovlardan chegirib olinishi uchun yetarlicha summa bo'lмаган holatda, to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga keladi, bu haqda ma'lumotlar Bank tomonidan kreditlar tarixi byurosiga taqdim qilinadi, bu Mijozning kredit tarixiga salbiy ta'sir etadi.

9.10. Bank kartasini (Mikroqarz taqdim qilingan kartani) va/yoki mobil telefon raqamini va/yoki MBX tizimiga bog'langan abonentlik qurilmasini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik. Mijoz tomonidan mazkur band shartlari buzilgan holatda, barcha harakatlar va operatsiyalar uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

9.11. Bankning talabiga asosan, zarur hollarda, Bankka Mijozning moliyaviy va mulkiy holatini tasdiqlovchi har qanday hujjatlarni Bankning tegishli so'rovnomasi olingan paytdan e'tiboran 3 ish kuni mobaynida taqdim qilish.

9.12. F.I.Sh., turar joy manzili, ish joyi, shaxsiy ma'lumotlari, tarjimai xol ma'lumotlari yoki boshqa axborot o'zgargan holatda Bankka ushbu o'zgarishlar to'g'risida bunday o'zgarishlar paytidan e'tiboran 1 (bir) kun mobaynida ma'lum qilish.

9.13. Mijozning moliyaviy holati yomonlashishiga va Mijoz tomonidan Shartnomada bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlar bajarilmasligi va/yoki tegishlichcha bajarilmasligi xavfi paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lган hech qanday majburiyatlar va choralarni o'ziga qabul qilmaslik.

9.14. Ish beruvchiga mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ariza berilganidan so'ng kelgusi ish kundan kechikmay bu haqda Bankka ma'lum qilish.

9.15. Bank, uning xodimlari va autsorsing kompaniyalari tomonidan jalb qilingan huquqiy vorislar tomonidan har qanday axborot manbalaridan foydalangan holda Mijoz tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarni, shuningdek Mikroqarz olish uchun Kredit arizasida va Mijoz tomonidan taqdim qilingan hujjatlarda qayd etilgan ma'lumotlarni, shu jumladan turar joyga, ish joyiga va h.k. borish orqali tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini taqdim qilish.

9.16. Bankka mazkur Shartnomada shartlariga muvofiq asosiy qarz, foizlar, neustoyka va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlardan bo'yicha to'lov muddati kelganida Mijozning har qanday hisobvarag'idan, shuningdek Mijozning boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan ketma-ketlik tartibida pul mablag'larini muqarrar ravishda chegirib olish akseptsiz, so'zsiz va qaytarib olinmaydigan huquqini taqdim qilish.

9.17. Bank talabiga asosan, shu jumladan mazkur Shartnomada doirasida taqdim qilingan Mikroqarz bo'yicha qarzni (asosiy qarz va boshqa to'lovlarni) majburiy va/yoki muddatidan oldin undiruv uchun choralar ko'rish bilan bog'liq Bankka yetkazilgan barcha xarajatlar va zararlar o'rnini to'ldirish.

9.18. Mijoz Bankning roziligesiz Mikroqarz bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini boshqa shaxs foydasiga to'liq yoki qisman voz kechishga haqli emas.

Bank quyidagilarga haqli:

9.19. Bank kreditlash jarayonida Mijozning moliyaviy holatini tekshirishga haqli. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

9.20. Quyidagi holatlarda:

- 1) Mijoz tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'ziga qabul qilgan majburiyatlar buzilishi va/yoki bajarilmasligi va/yoki tegishlicha bajarilmasligi;
- 2) Mijozning moliyaviy holati yomonlashishi va/yoki agar Mijozga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa va/yoki agar Mijozning qarzni qoplash uchun ta'minot sifatida taqdim qilingan mol-mulkları xatga olingan bo'lsa va/yoki agar ishga solmay qo'yilgan bo'lsa va/yoki Mijozning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkları bilan operatsiyalar to'xtatib qo'yilgan bo'lsa;
- 3) Bank tomonidan Mijoz tomonidan noto'g'ri axborot taqdim qilinganligi faktlari aniqlanishi; 4) Mijozning bank nazoratidan bosh tortishi, shu jumladan Mijozni tegishlicha tekshirish imkoniyati yo'qligi va/yoki Mijoz tomonidan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari" talablariga asosan shubhali va/yoki gumanli operatsiyalar amalga oshirilishida;
- 5) mazkur Ommaviy ofertaga asosan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar, komissiya va/yoki boshqa to'lovlarning o'z vaqtida so'ndirilmasligi;
- 6) Mikroqarz qaytarilmasligi xavf-xatarini ko'paytiradigan har qanday omillarning paydo bo'lisi;
- 7) Bank kartasidan (Mikroqarz taqdim qilingan kartadan) ruxsatsiz foydalanishga shubhalar holatida;
- 8) noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar (hujjatlar) taqdim qilinishi yoki Bank tomonidan so'ralgan, shu jumladan Mikroqarz, Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli monitoringini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni (hujjatlarni) taqdim qilish rad etilishi;
- 9) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarning Bank tomonidan bajarilmasligi; Bank quyidagilarga haqli:
 - Shartnoma bo'yicha Mikroqarz taqdim qilinishini bir tomonlama tartibda muddatdan oldin bekor qilish, bu haqda Qarz oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda xabardor qilinishi kerak va Mikroqarzni muddatidan oldin undiruvga taqdim qilish, shu jumladan garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) qismiga (qismlariga) undiruvni qaratish orqali va/yoki qarz summasini Kafil/Garovga qo'yuvchi/Sug'ortalovchidan undirish;
 - bildirish xati Mijozga/Garovga qo'yuvchiga/Kafilga topshirilgan sana yoki pochta orqali yuborilgan sana yozma shaklda bildirish xati yuborilgan sana hisoblanadi;
 - shartnoma bo'yicha yangi summalar va/yoki yangi kreditlar/qarzlar berilishini to'xtatish;
 - shartnoma bo'yicha qarzni muddatidan oldin undiruvga taqdim qilish;
 - o'z xohishiga ko'ra, komissiya va/yoki neustoyka summalarini olmaslik;
 - yakka tartibda mutlaq o'z xohishiga ko'ra, Shartnoma bo'yicha qarzlarni undiruv va majburiyatlarning majburiy ijrosi yuzasidan sud tartib-taomillarini boshlash;
 - Qarz oluvchining Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan, ushbu hisobvaraqlar bo'limgan holatda esa, har qanday boshqa hisobvaraqlaridan, shu jumladan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlaridan mablag'larni akseptsiz va muqarrar tartibda chegirib olish, ularni Shartnoma shartlariga asosan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirish.

9.21. Mijozning kartochka hisobvarag'iga qaytarish natijasida tushgan pul mablag'lari Shartnoma bo'yicha Mikroqarzning foydalanilmagan summasini qaytarish sifatida Bank tomonidan mustaqil ravishda Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish hisobvarag'iga yo'naltiriladi.

9.22. Bank o'z xohishiga qarab, mazkur Ommaviy ofertada belgilangan huquqlar/talablardan istalgan birini qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarning qo'llanilmasligi yoki qisman qo'llanilishi ushbu huquqlar/talablar rad qilinishini anglatmaydi va ular Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida istalgan vaqtida qo'llanilishi mumkin.

9.23. Bank Mijoz bilan bog'lanishga va unga to'lov muddati kechiktirilgan qarz mavjudligi hamda Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi to'g'risida xabarnoma va bildirish xatini aloqa vositalari yordamida Mijoz tomonidan Mikroqarz olish uchun Bankka taqdim qilingan Kredit arizasida va boshqa hujjatlarda qayd etilgan manzillarga (telefon raqamlariga), shuningdek telefon aloqasi, SMS-xabarnoma yuborish, doimiy ro'yxatdan o'tkazilgan/amalda istiqomat qiladigan manzil bo'yicha

pochta xizmati orqali, elektron pochta orqali yoki har qanday boshqa aloqa vositalari orqali Mijozdan olingen aloqa bog'lash ma'lumotlari bo'yicha yuborishga, shuningdek qayd etilgan doimiy ro'yxatdan o'tkazilgan/amalda istiqomat qiladigan manzil/ish joyi bo'yicha Mijoz oldiga borish orqali bevosita taqdim qilishga haqli.

Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

9.24. Mijozga Mikroqarzdan mazkur Ommaviy ofertada va Mikroqarzning individual shartlarida belgilangan limit doirasida va muddatlarda foydalanish imkoniyatini taqdim qilish.

9.25. Mikroqarz bo'yicha qarzni undirish maqsadida Mijozni qarzni so'ndirish zaruriyati va Mikroqarz bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligi oqibatlari to'g'risida to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga kelgan sanadan e'tiboran 7 (etti) kalendar kuni mobaynida Shartnomada Mijoz bilan kelishilgan har qanday aloqa usullaridan foydalanilgan holda belgilangan shaklda xabardor qilish. Xabarnomani chopar orqali topshirish va bu haqda telefon orqali og'zaki eslatib o'tish mahalliy vaqt bo'yicha soat 20:00 dan 8:00 gacha davrda amalga oshirilmaydi.

9.26. Mijoz kredit yuklanishining kelgusi ko'payishi oldini olish maqsadida mazkur Shartnomada bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga kelgan sanadan e'tiboran 7 (etti) kalendar kuni mobaynida elektron pochta aloqasi orqali yoki MBX tizimi vositalarida shaxsiy kabinetga ma'lum qilish yoki Mijoz tomonidan Kredit arizasida taqdim qilingan mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma/PUSH-bildirish xati orqali to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga kelganligi to'g'risida so'ndirish jadvali va qarzni so'ndirish tartibi ilova qilingan holda xabardor qilish.

9.27. Shartnomada bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan holatda, Bankka Mijozning tegishli so'rvonomasi tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni mobaynida MBXni ko'rsatish tizimlari orqali yoki Mijozning xohishiga ko'ra, Mijoz tomonidan Shartnomada bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi yozma shakldagi hujjatni taqdim qilish.

9.28. Bankda Mijozning tegishli so'rvonomasi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran besh ish kuni mobaynida Mijozga Mikroqarz taqdim qilinganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilish.

10. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

10.1. Taraflar mazkur Shartnomaga va amaldagi qonun hujjatlariga asosan Shartnomada bo'yicha o'z majburiyatları bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgar bo'ladilar.

10.2. Taraflar Shartnomada bo'yicha o'z majburiyatları to'liq yoki qisman bajarilmaganligi yengib bo'lmaydigan kuch vaziyatlari, ya'ni favqulodda vaziyatlar va ushbu sharoitlarda oldini olish mumkin bo'limgan vaziyatlar oqibatida yuz bergen bo'lsa, bunday majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar. Taraflar yengib bo'lmaydigan kuch vaziyatlari ta'sirini vakolatli organlar hujjatlari bilan tasdiqlashlari kerak. Bunday vaziyatlarga, shu jumladan, urush harakatlari, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar, harbiy-siyosiy vaziyat o'zgarishlari, elektr energiyasining uzib qo'yilishi, ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlari, mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi mumkin bo'lmasligiga olib keladigan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar chiqarilishi tegishli bo'ladi.

10.3. Bunda, Taraflar koronavirusli infeksiya pandemiyasi (COVID-19) va (yoki) har qanday boshqa epidemiyalar yoki kasalliklarning keskin tarqalishlari, shuningdek pandemiya tufayli joriy qilinadigan cheklov choralar (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida karantin e'lon qilinishi) mazkur Shartnomada bo'yicha "engib bo'lmaydigan kuch vaziyati" (fors-major) sifatida e'tirof qilinishi mumkin emasligini tushunadilar va bunga rozilik bildiradilar hamda Taraflar dispozitivligi hisobga olingen holda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 333moddasi 3-qismiga asosan yengib bo'lmaydigan kuch to'g'risidagi qoidalar qo'llanilishini istisno qiladilar. Shartnomaning mazkur bandi qoidalari davlat organlari tomonidan Taraflar na oldindan bilishi va/yoki na oqilona choralar bilan bartaraf qilishi mumkin bo'limgan Taraflar tomonidan Shartnomada bo'yicha majburiyatlarning tegishlicha bajarilishi uchun cheklovlarni belgilaydigan qarorlar qabul qilingan holatda ham qo'llaniladi.

10.4. Mijoz Shartnama shartlariga asosan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi, asosiy qarz bo'yicha foizlar, komissiya va boshqa to'lovlari, shuningdek qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlari o'mini to'ldirish va Mijoz tomonidan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi tufayli yuzaga kelgan Bankning boshqa zararlari uchun Bank oldida o'zining barcha mulki bilan javobgar bo'ladi.

10.5. Mikroqarz va uning bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni so'ndirish bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi, shuningdek shartnama bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun Mikroqarzning individual shartlariga asosan penya hisoblab yoziladi. Mijoz Bankda va boshqa tijorat banklarida ochilgan Mijozning har qanday hisobvarag'idan hisoblab yozilgan penyaning har qanday summasini akseptsiz va muqarrar tartibda chegirib olinishini e'tirof qiladi va Bankka ushbu huquqni taqdim qiladi.

10.6. Shartnama bo'yicha o'z majburiyatlar bajarilmagan yoki tegishlicha bajarilmagan holatda, Bank Universal shartnomaga va Amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgar bo'ladi.

10.7. Bank Kartadan foydalaniб amalga oshirilgan uning nazorat doirasidan tashqari nizoli va da'voli vaziyatlar yuzaga kelganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

10.8. Bank texnik to'xtalishlar (elektr ta'minot va aloqa tarmoqlari uzilishlari/shikastlanishi, To'lov tizimlari ishida texnik to'xtalishlar) holatida, Mijoz tomonidan hisobvaraqqva pul mablag'larini o'tkazish uchun rekvizitlar noto'g'ri qayd etilgan/to'liq qayd etilmagan holatda mazkur Ommaviy oferta shartlari bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

10.9. Bank yiliga o'zlashtirish miqdorining yarmidan ko'p bo'lмаган qismini tashkil etadigan summada foizlar, komissiya, penyalarni hisoblab yozish va undirishga haqli.

11. NIZOLARNI HAL QILISH VA MUROJAATNOMALARNI ISHLASH TARTIBI

11.1. Taraflar tomonidan mazkur Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar o'zaro maqbul qaror ishlab chiqish maqsadida Taraflar tomonidan oldindan ko'rib chiqiladi. Taraflar kelishuvga erishmagan holatda, ular o'rtaсидаги nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda da'vogar joylashgan manzil bo'yicha umumiy yurisdiksiya sudida hal qilinadi.

11.2. Taraflar o'rtaсида mazkur Shartnama tufayli yuzaga keladigan barcha nizolar mazkur Ommaviy oferta va Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.

11.3. Bank onlayn mikroqarz bo'yicha so'ndirilmagan mablag'lar qaytarilishini, barcha hisoblab yozilgan foizlar va boshqa qo'shimcha talablar to'lovi, shuningdek Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan barcha xarajatlari va zararlar Mijoz tomonidan o'rni to'ldirilishini talab qilishga haqli.

11.4. Neustoyka to'lovi Mijozni unga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishidan yoki qoida buzilishlarini bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

11.5. Mijoz va Bankning mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan qo'llaniladi.

11.6. Sug'urta tashkiloti tomonidan Bankka Mijozning onlayn mikroqarz bo'yicha qarzdorligi o'rnini to'ldirish sug'urta summasi to'langan holatda, amaldagi qonun hujjatlariga asosan Mijozga regress tartibida pul mablag'lari o'rnini to'ldirish uchun talab qilish huquqi sug'urta tashkilotiga o'tadi.

11.7. Mazkur Shartnama tufayli yoki u bilan bog'liq yuzaga keladigan barcha nizolar Taraflarning o'zaro kelishuviga asosan hal qilinadi. Agar Taraflar kelishuvga erishmasa, ular o'rtaсида nizo Bank joylashgan manzil bo'yicha vakolatli sudda hal qilinadi.

12. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

12.1. Shartnama istalgan paytda Mijozning tashabbusi bo'yicha bekor qilinishi mumkin, bunda Bankka Shartnomani bekor qilish uchun ariza taqdim qilinganida Bank bilan yakuniy hisob-kitob qilinishi va Qarzdarlik to'liq so'ndirilishi shart.

12.2. Shartnama Mijoz tomonidan Shartnama bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan holatda Bankning tashabbusi bo'yicha suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin, bunda Bank

tomonidan Mijozga bunday bekor qilish to'g'risida bildirish xati yuborilgan kundan e'tiboran 3 (uch) kundan keyin Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

12.3. Shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bank oldidagi Shartnoma bo'yicha Qarzdorlikni, shu jumladan Shartnomaning amal qilish davrida yuzaga kelgan Bank komissiya to'lovi bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish majburiyati bekor qilishiga olib kelmaydi.

13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

13.1. Shartnoma Mijoz tomonidan mikroqarzning Individual shartlari akseptlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

13.2. Shartnoma Mikroqarz bo'yicha kreditlash davrida amal qiladi va Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilganidan so'ng bekor qilinadi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Mazkur Ommaviy ofertada oldindan belgilanmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariiga asosan tartibga solinadi.

14.2. Mijoz barcha aloqa vositalaridan, shu jumladan, biroq cheklanmagan holda: pochta jo'natmalari, SMS-xabarnomalar, ovozli jo'natmalar, elektron xatlar yuborish va h.k. vositalardan foydalangan holda bevosita aloqalarni amalga oshirish orqali Bank xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq reklama materiallarini Bankdan olish uchun o'z roziligini bildiradi.

14.3. Nizolar yuzaga kelgan holatda bank qaydnomalari mazkur Ommaviy oferta/Shartnoma bo'yicha har ikki Taraf majburiyatlarining ustuvor dalil-isbotlari hisoblanadi.

14.4. Qarz oluvchi vafot etgan holatda, uning barcha huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariida belgilangan tartibda uning merosxo'rлariga o'tadi.

14.5. Shartnoma Mijoz tomonidan akseptlangan paytda amaldagi Ommaviy oferta shartlarida tuzilgan hisoblanadi hamda Bank va Mijoz tomonidan o'z majburiyatlari to'liq bajarilgungacha amal qiladi.

14.6. Ommaviy oferta MBXda/Bank saytida e'lon qilingan paytdan e'tiboran va uning amal qilish muddati mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

E'TIBORLI BO'LING! Agar Sizga va Sizning yaqinlaringizga kimdir kredit (qarz) olishda o'z yordamini taklif qilsa, shuni unutmangki, «Tenge Bank» ATB Mijozlar bilan bevosita, vositachilar xizmatlaridan foydalanganmagan holda ishlaydi.

15. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI «Tenge Bank» ATB

Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy. MFO: 01176, STIR: 207297973
Aloqa-markazi raqami: 1245